

Odilov Davlatshoh Xayratovich

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

Annotatsiya: *Madaniyat va ma'rifat, ta'lim bo'lsa-yu tarbiya, madaniyat bo'lmasa bir tiyin, Madaniyat va sivilizatsiyaning „tanqidi“ vujudga kelgan on, ma'rifat. Ushbu maqolada madaniyat to'g'risida so'z yuritildi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, bilim, odob - axloq, jamiyat.*

Ma'daniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada „madaniyat“ atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat so'zi arabchadan olingan bo'lib, madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiylar turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Madaniyat atamasini ilm fanga birinchi bo'lib E.Teyler 1871 yilda kiritgan. O'sh davrda madaniyatning 7 ta'rifi bo'lgan. XX asrning 50 yillariga kelib madaniyatning 150 da ortiq 1970 yillarda esa 250 tadan ortiqroq ta'rifi bo'lgan. Madaniyat sohasi shu darajadi keng va qamrovliki, unga yagona barcha uchun ma'qul bo'lgan ta'rifni berish ancha mushkulhozirgi kunda uning ta'rifi 500 da ortib ketdi. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqa shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Forobiy

fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, „oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi“, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi.

19-asrning oxiri va 20-asrning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan M. rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Ular turli gaz. va jur.lar chiqardilar, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochdilar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egallashga da'vat etdilar. Ma'rifatchilikning keng quloq yoyishi samarasi o'laroq, xalqning umummadaniyati yuksala bordi. Albatta, ma'rifatli, madaniyatli va tarbiyali kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat — bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Albatta, ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Darhaqiqat, bularning barchasi negizida vatanni sevish, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehr yotibdi. Qisqa qilib aytganda, yurt rivojlanishi uchun, albatta, ta'lim, bilimdan tashqari madaniyat, tarbiya, ma'rifat kabi tushunchalar ham mavjud. Fan-texnika taraqqiy topgan sharo-itda ko'pgina sotsiologlar va madaniyatshunoslar M.ning yagona g'oyasini izchil amalga oshirish mumkin emas, degan qoidani ilgari surdilar. Bu politsentrizm, G'arb bilan Sharqning azaldan qarama-qarshiligi va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa umumiy qonuniyatlarini inkor etuvchi nazariyalarida o'z ifodasini topdi.

Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi“, degan edi O‘zbekiston prezidenti Islom Karimov. Shu sababli O‘zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o‘rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. O‘zbekistonda ma'naviyat va ma'rifatni ko‘tarish, targ‘ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyish maqsadida respublika „Ma'naviyat va ma'rifat“ markazi tashkil etilgan. Respublika ta'lim tizimida „Ma'naviyat asoslari“ fani o‘qitiladi. Ma'naviyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti.

Yevropada Ma'rifatchilik davrida madaniyat va sivilizatsiyaning tanqidi vujudga keldi. Bunda „madaniy“ millatlarning buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida bo‘lgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligi qarshi qo‘yildi. Nemis faylasuflari bu ziddiyatli holatdan chiqishning yo‘lini „ruh“ doirasidan, axloqiy, estetik romantiklar) yoki falsafiy ong doirasidan qidirdilar. Ular bu ong sohasini haqiqiy M. va inson taraqqiyotining omillari deb bildilar. 19-asr oxiridan boshlab „lokal sivilizatsiya“ degan qarash yuzaga keldi. Bu g‘oya sivilizatsiyani muayyan jamiyat taraqqiyotining so‘nggi bosqichi sifatida olib qaradi. M. — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o‘zigina yaratgan sof madaniyat bo‘lmaydi va bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir milliy M.ning asosiy qismini shu millat o‘zi yaratgan bo‘lsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy M.ning ulushi va ta’siri bo‘ladi, albatta. M. hech qachon sinfiy hodisa bo‘la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Mas, san’at va adabiyot durdonalari, me’morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va boshqa barchaga tegishlidir.

Madaniyatning 2 asosiy turi — moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat moddiy va ma'naviyga bo‘linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohasini hamda uning natijalari mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalari kiradi

bilim, axloq, ta'limtarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar. Madaniyat mohiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Kishilik tarixining uzoq davrlarida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka, alohidan umumiylikka ega, o'ziga hos uzluksiz jarayon hisoblanadi. takidlash joizki madaniy boyliklarning yaratilishi jarayonidagi barcha bosqichlar doimo bir - birini yo'ldirib borgan.

Ibtidoiy davrda insoniyat tomonidan yaratilgan eng oddiy tosh qurollari bilan hozirgi zamonaviy mehnat qurollari o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik mavjud. Chunki birinchidan agar ibtidoiy tosh qurollari mavjud bo'lmaganda edi, hozirgi zamon qurollari ham vujudga kelmagan bo'lardi. Ikkinchidan ibtidoiy qurollarning, zamonaviy qurollarning ham bajaradigan vazifasi bir xil.

Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol ma'rifat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyatimizning yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgarigi jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishga o'tishi milliy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun'iy tarzda „yagona umummadaniyat“ga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan so'nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb M.iga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o'tmishi bir yoklama o'rganilib, uning ko'pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan

munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urfodatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shuningdek, shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakillanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatni kamol toptirishda o'zining me'yoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning madaniyat ehtiyojlarini ta'minlaydi. Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati shaxsning erkinligi, uning, huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlaridagi muhim masala hisoblanadi. Ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rinlardan birini egallaymiz. Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek, «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, ximiya, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimizdir.

Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixni taraqqiyotning mahsuli, ham uning sub'yektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyoqarashini shakillantiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat narsalar yaratib qolmay, o'zini, o'z shaxsiyatini ham qayta yaratadi. shaxsning komillikka erishuvini ta'minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatni rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyashda madaniyatning tarkibiy qismlari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan fikrlashiga ko'ra insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyat, axloq madaniyati, badiiy tafakkur madaniyati, dunyoqarashi ruhning olami haqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tizim tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloqiy – estetik qadryatlarni, axloqiy – huquqiy nizomlarni, urf-odat va an'analarni qamrab oladi. Shaxs madaniyatning shakillanishida jamiyat

madaniyatining quyidagi tizimlari ahamiyatlidir: siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy – huquqiy g'oyalar majmui bo'lib, ma'naviy qadriyatlarning mahsus tizimini tashkil qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlariga jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog'liq holda vujudga kelib jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog'liq. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni qayta yaratish va o'zlarini tarbiyalash jarayonlarini qamrab oladi. Xalqimizning asriy orzusi, ko'zlangan yuksak maqsadlarimizga etishning asosiy omili-avvalambor mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash bilan bog'liq ekanidan kelib chiqqan holda, milliy g'oyamizning ma'no-mazmunini ham ana shunday mezonlar negizida belgilashni vazifa qildik. Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday muhim ahamiyatini hisobga olib, Istiqlolimizni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g'oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqarishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xayrullayev M.M, Madaniyat va meros, Toshkent. 1973.
2. Shorahmedov D.A, Tanlangan asarlar, Toshkent.1996.
- 3.Karimov I.A, O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisot, siyosat. Tanlangan asarlar.Toshkent. 1996.
4. O'zME, Birinchi jild. Toshkent.2000.